

FarDU, Filologiya fanlari doktori,
professor, Jo‘rayev Habibullo
Abdusalomovich taqrizi ostida

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o‘g‘li
FarDU adabiyotshunoslik kafedrası
o‘qituvchisi. Elektron pochta:
sayidolimovjavoxir@gmail.com
Aloqa uchun: +998996091642

ZAMONAVIY ADABIYOTDA DINIY SYUJETLAR: AN’ANA VA YANGICHA YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqolada agiografik asarlardagi syujet liniylarining o‘ziga xosligi haqidagi qarashlar bayon etilgan bo‘lib, mazkur tipdagi manbalarda an’ana va izdoshlik masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, adabiyotshunoslikdagi sayyor syujetlar yoki syujetlar migratsiyasining agiografik asarlarda boshqa adabiyot namunalaridan farqlanishi ahamiyatlidir. Agiografik asarlardagi syujet liniylari avval xalq og‘zaki ijodida shakllangan holda yozma adabiyotga ko‘chish barobarida ma‘lum bir ijodkor tomonidan qayta ishlangandan so‘ng yangicha ohang bilan xalq og‘zaki ijodiga qayta ko‘chishi kabi holatlar ko‘zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida agiografik syujet asosidagi voqea-hodislarning turli zamon va mokonda ijodkor tomonidan o‘ziga xos tarzda berilishi ahamiyatlidir. Turli davrlarda yaratilgan asarlarda tipologik o‘xshashlikni yuzaga keltirgan syujet liniylari ma‘lum bir e‘tiqodiy qarshlar asosida shakllangan hisoblanadi. Ijodkorning ijodiy niyati va mahorati asosida agiografik xarakterdagi syujet liniylari o‘zigacha bo‘lgan davrda yaratilgan mazkur tipdagi asarlarning mazmunini saqlagan holda zamon bilan hamohang usulda bayon etishida namoyon bo‘ladi. Zero agiografik adabiyotdan ko‘zlangan maqsad ham asosi diniy tushunchlar bilan bog‘liq voqelarni so‘z san’ati orqali yoritib berishdan iborat. Natijada an’ana va izdoshlik bilan bir qatorda syujetlar migratsiysi ham kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: agiografiya, xalq og‘zaki ijodi, syujet, sayyor syujet, syujetlar migratsiyasi, ijodiy niyat, ijtimoiy muhit.

РЕЛИГИОЗНЫЕ СЮЖЕТЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ТРАДИЦИЯ И НОВЫЙ ПОДХОД

Аннотация: в данной статье изложены взгляды на своеобразие сюжетных линий агеографических произведений, а также затронуты вопросы традиции и преемственности в источниках данного типа. В частности, важно, чтобы странствующие сюжеты или миграции сюжетов в литературоведении отличались от других литературных образцов в агеографических произведениях. Заметны случаи, когда сюжетные линии в агеографических произведениях после переработки конкретным творцом вновь переходят в устное народное творчество с новым тоном, что эквивалентно переходу в письменную литературу, предварительно сформировавшуюся в устном народном творчестве. Вместе с тем, в результате общественно-политических процессов важно, чтобы события, лежащие в основе агеографического сюжета, по-своему передавались Творцом в разные времена и эпохи. Сюжетные линии, вызвавшие типологическое сходство у пчел, созданных в разные эпохи, считаются сформированными на основе определенных верований. Сюжетные линии агеографического характера, основанные на творческом замысле и мастерстве создателя, проявляются в том, что произведения этого типа, созданные в предшествующую эпоху,

рассказываются в гармонии со временем, сохраняя при этом содержание. Цель агиографической литературы также состоит в том, чтобы пролить свет на события, связанные с религиозными концепциями, с помощью искусства слова. В результате, наряду с традицией и последовательностью, наблюдается миграция сюжетов.

Ключевые слова: агиография, устное народное творчество, сюжет, странствующий сюжет, миграция сюжетов, творческий замысел, социальная среда.

RELIGIOUS PLOTS IN MODERN LITERATURE: TRADITION AND A NEW APPROACH

Annotation: that the events based on the agiographic plot are given in their own way by the creator in different times and mocons. Plot lines that have generated typological similarity in as created in different periods are considered to be formed on the basis of certain ecclesiastical opposites. On the basis of the creative intention and skill of the creator, plot lines of an agiographic nature are manifested in the fact that they are articulated in a harmonious way with the times, while maintaining the content of works of this type created in the period up to them. The goal of Zero agiographic literature is also to illuminate the events associated with religious concepts through the art of words. As a result, in addition to tradition and followers, plot migrations are also observed.

Key words: hagiography, folk oral creativity, plot, itinerant plot, plot migration, creative intention, social environment.

Kirish qismi. Hozirgi kunda agiografik adabiyotga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borayotganligi sababli mazkur turdagi asarlar tadqiqiga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu sababli ham bu tipdagi asarlarda tasvirlayotgan voqea-hodisa, obraz, detallarga va shu kabi boshqa narsalarga ijodkor o‘z ijodiy yondoshuvi orqali qaraydi. U tasvirlayotgan voqelar ijodkorgacha bo‘lgan davrda ham tasvirlanga bo‘lishi mumkin, lekin muallifning maqsad va g‘oyasi asarda bunday voqea-hodisalarga qayta jon bag‘ishlaydi. Agiografik asarlarda ham shu kabi holatlarni ko‘rishimiz mumkin. [“Payg‘ambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini tasvirlovchi hikoya va qissalar.]. Turli davrlarda yaratilgan mazkur turdagi asarlarning syujeti deyarli bir xil hisoblanadi. Shu jihatdan ham tarixiy asarlarga yaqin turadi, ya‘ni bir tarixiy voqeaga tarixchi turli omillar asosida yondashadi. Bunga siyosiy tuzum, ijtimoiy hayot, tarixiy muhit kabi qator omillar sabab bo‘ladi. Agiografik asarlar o‘zida muqaddaslikni namoyon etar ekan, muallif ham bu jarayonga tarixchi singari yondashadi. Tarixchi uchun tarixiy faktlar muhim hisoblansa, so‘z san‘atkori uchun badiiylik birinchi o‘rinda turadi.

Metodologiya. Agiografik asarlarni tahlil etish jarayonida qiyosiy-tipologik metoddan foydalanish turli davrlada yaratilgan asarlardagi o‘xshash jihatlari va tipologik bog‘liqliklarni anglashga yordam beradi. Zero “Konkret badiiy asar mazmuniga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri ijodkorning dunyoqarashidir. Inson voqelikni, unda yuz berayotgan hodisalarni o‘zining dunyoqarashi bilan bog‘liq holda ko‘radi. Shunga ko‘ra biz “real voqelik”deb atayotgan narsa turli individlar ongida turlicha akslanadi va turlicha baholanadi” [1. 289]. Shu sababli ham agiografik asar – tarixiy asar hisoblanmay payg‘ambarlar va avliyolar hamda din peshvolari hayotining eng muhim nuqtalariga badiiy jihatdan e‘tibor qaratadi. Ijodkor bu jarayonda biografik metodga asoslangan holda asar qahramonlariga e‘tibor qatarsa ham badiiylikni asosiy planga chiqaradi.

Barcha voqea-hodisalarga batafsil to‘xtalib o‘tish talab etilmaydi. Muallif o‘z fikrini qanday berishni xohlasa shunday bayon etadi, shu jihatdan ham agiografik asarlarda syujet bir xil ko‘rinishda namoyon bo‘laveradi. “Syujetning birlamchi funksiyasi asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materiallarini uyushtirib berishdan iboratdir. Demak, syujetning qanday bo‘lishi mazmunga, ijodkor ijodiy niyatiga bog‘liq” [2. 289].

Natijalar qismi. Ijodkorning asar mazmunini yetkazib bera olish esa uning mahoratini namoyon etadi. “Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o‘laroq dunyoga keladi. Ya‘ni borliqda yashayotgan individ sifatida ijodkorni muayyan muammolar o‘ylantiradi, tashvishga solidi. Ijodkor o‘sha muammoni idrok etishga intilishi ichki ehtiyojga aylangani uchun ham asarga qo‘l uradi” [1. 94]. Misol tariqasida “Qisas ul-anbiyo” tipidagi asarlardan bir voqeaning ikki ijodkor tomonida tasvirlanishiga e‘tibor qaratsak: “ – Ey Sulamon, buning kichikligiga qaramang, Haq taoloning ulug‘ligiga qarang. Mening ixlosimga qarang. Alqissa, mo‘rcha o‘zi pishirib, lashkarga ulashdi, go‘shiga to‘ymagan lashkar qolmadi. Yana buyurdikim, bi donadan arpa olib chiqdilar, xirmon-xirmon arpa bo‘ldi. Bularni otlarga berdilar, ortib qoldi. Ul kun mehmon bo‘ldilar, aytdilar – Iloho, bir murcha shuncha mehmondorchilik qildi, men ham barcha jonivorlar rizqining bir kunligin bersam. Xitob keldiki: - Ey Sulaymon, qo‘lingdan kelsa, qilgin” [64-65]. Muallif barcha voqea-hodisalarga, ya‘ni bu jarayongacha nimalar bo‘lganligini, bundan keyin nima bo‘lishini kitobxonga batafsil tushuntirmoqchi. Shu sababli ham barcha voqealar ibtidodan intihogacha uzilishsiz bayon etiladi. Agiografik asarlarda bunday ijodiy niyat har doim ham kuzatilavermaydi: “...Sulaymon a.s. ul ishtin ibrat olib, mo‘r Sulaymon a.s.ni chegurtka ayog‘i bila ziyofat qilib, Sulaymon alayhissalom murg‘a navozishlar qilib, ul yerdin o‘tti. Manquldirkim, Sulaymon a.s.ning hashamati nihoyatqa yetkondin so‘ngra, muddao qildikim, har mahxluqnkim haq taolo aning mahkumi qilibdur, borchasin ziyofat qilg‘ay. Munojot qilib ruxsat ham topdi” [4. 579]. Keltirilgan ikki misoldagi syujet bir xil va bir davrda ayni bir inson bilan sodir bo‘lgan, lekin ijodiy yondashuv va niyatda farq bor. Keyingi davrlarda shu kabi hollarning agiografik asarlardan boshqa badiiy asarlarga ko‘chishi yo xalq og‘zaki ijodidagi syujetlar bilan o‘xshashlikni namoyon etishi sayyor syujet nazaryasi (migratsiyalar nazariyasi) bilan qorishqlikni namoyon etganday ko‘rinadi. Aslida esa agiografik asarlardagi syujetlarning ko‘chishi sayyor syujet nazariyasidan keskin farqlanadi. “Sayyor syujet nazariyasi folklorni muayyan bir ellat yoki xalq mulki sifatida tushunishni chekladi, unga turli yurt, davrlar poetik madaniyatlaridan o‘zlashtirish natijasi deb qaradi” [2. 269]. Sayyor syujetlar turli zamon va makonda yashagan hamda turli dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan yaratilgan. Agiografik asarlardagi syujetlar ham sayyor syujetlar kabi turli zamon va makonda yashagan insonlar tomonidan yaratilgan, lekin farqli jihati shundaki, bunday asarlar bir xil e‘tiqodiy qarashlarga ega bo‘lgan odamlar tomonidan yaratildi. E‘tiqodiy qarashlarda bog‘liqlik bor ekan bunday jarayonda sayyor syujet jihatidan emas an‘ana va izdoshlik asosida yondashish to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Eng xarakterli tomoni shundaki, bunday asarlar dastlab xalq og‘zaki ijodida yartilib keyinchalik yozma adabiyotga o‘tgan. Yozma adabiyotda sayqallanib ommalashgandan so‘ng mazkur syujetlar yana folklorga ko‘chdi. Natijada xalq og‘zaki ijodi va an‘ana va izdoshlik yuzaga keldi. Bu jarayon yangi davr adabiyotida an‘ana va izdoshlik shaklida davom etib kelmoqda: “Har gal boshqa tomondan tashlamoqchi bo‘lsalar, shu yerdan og‘zini ochib chiqaverdi. Baliq dedi “Ey Yunus, qachongacha qochasiz?”... Ko‘zlarini yumib... o‘zlarini baliq og‘ziga otdilar... Hazrati Yunus alayhissalom baliq og‘zidan chiqdilar” [3. 64.65], shunga o‘xshash syujetli voqeani Navoiy Yunus alayhissalomdan tashqari Sulaymon alayhissalom bilab bog‘liq voqea holida quydagicha keltiradi: “Va Sulaymon a.s. ro‘zi jihatidan daryo qirg‘og‘inda bolog‘chilarg‘a muzdurluk qilur erdi. Ul xotamni bir bolig‘ yutub, alarming domig‘a tushub, Sulaymon a.s. muzdig‘a berdilar. Silaymon a.s. bolig‘ ichidin xotamni olib, yana

saltanat taxtig‘a bordi” [4. 581]. bu voqea keyinchalik xalq og‘zaki ijodida ham o‘ziga xos tarzda bayon etildi: “Shahzoda qarasa, bo‘ri tishlab olib borayotibdi. “Voh!”, - deymen deb edi, og‘zidagisi ham suvga tushib ketdi, bir baliq yutib uta chiqdi...Olim sayod degan qatag‘anlik katta sayod katta bir to‘rni yozib o‘tirib erdi. Shu baliq boruvi bilan to‘rga tushdi...Ichini yordi “Ota” deb ichidan bir bola chiqa keldi” [5. 206, 211]. “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Kuntig‘mish” dostonlaridan keltirilgan misollar orqali agiografik asarlardagi syujetlardagi o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Shuni ham ham unutmash lozimki, xalq og‘zaki ijodiga agiografik adabiyotning ta‘siri anchayin katta bo‘lgan. Quyidagi misolda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Undan o‘tib bir dengizga keldilar. Xotinlari va o‘g‘illarini qo‘yib bir kema tomon ketdilar. Shu payt suvdan bir baliq chiqib, kichik o‘g‘illarini yutib yubordi. Xotinlari baliq tomon yugurib borgan edi, katta o‘g‘illarini bo‘ri olib qochdi” [3.196]. Yangi davr adabiyotida ham yuqorida keltirilgan syujet qayta ishlangan holda o‘ziga xos tarzda yoritib berildi. Bu jarayonda Hamid Olimjonning mahorati shundaki agiografik syujetga ega bo‘lgan folklor namunasini ijodiy niyat asosida yozma adabiyotga yangicha ohang orqali olib kirdi: “O‘zin suvga otdi, Shu ondayoq u botdi. Oygulni Jayhun baliq Oldi-yu yutib ketdi...Pichoq belga borganda Chol birdan cho‘chib qochdi. Bxtiyor g‘azab sochdi. Baliq qornida shu on Tebranib uyon-buyon Oygul Ko‘zin ochdi” [6. 365]. Shu sababdan ham Sharq xalqlari adabiyotidagi voqea-hodisalar ming yillardan buyon zamon va makonda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib kelmoqda.

Ayrim o‘rinlarda agiografik asarlardagi syujet boshqa asarlarga ko‘chganda butun boshli asarlarni harakatga keltiradigan voqealarga asos bo‘lishi mumkin. Bu jarayon ko‘pincha xalq dostonlarida ko‘rinda. Xalqning oruz-armonlar uning e‘tiqodiy qarashlarida namoyon bo‘ladi. Misol uchun “Alpomish” dostonida asarni harakatga keltirgan, uni epos darajasiga ko‘targan voqea ham agiografik syujetga asoslangan: “Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa bul hambaxil ekan...Boysari baxillika chiqib ketmasin, - deb o‘z ko‘nglida: “Boysaribiy ukam menga zakot bersa kerak ekan”, - deb o‘yladi” [7. 18], keltirilga bu parchadan so‘ng dostonidagi asosiy voqealar boshlanib ketadi. Shuning uchun ham agiografik asarlarga xos bo‘lgan bunday syujetlarning ko‘chishi asarning umumiy tuzilishiga ham ta‘sir o‘tkazadi. Yuqorida keltirilgandan tashqari zakot masalasi boshqa zamonaviy asarlarda ham uchraydi., Ayrim hollarda asar qahramonlarining xarakterini ochishda agiografik syujetga xos bo‘lgan voqealarning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. “Qutlug‘ qon” romanida Mirzakarimboyning ichki olamini ochib berishda bunday holat ko‘zga tashlanadi. Mirzakarimboy atrofadagi odamlar ko‘z o‘ngida o‘zini qanchalik taqvodor qilib ko‘rsatmasin, kichi bir voqea orqali ichki dunyosi ochib beriladi: “So‘fi, kambag‘al odam, keldi. Mirzakarimboy” “Mana bu ot-arava sizniki, sizga berdim, qani, o‘tirib bir javlon qilib keling”, dedi. So‘fi kulib, izvoshiga o‘tirdi...Boy so‘figa yaqinlashib, bir o‘n so‘mlik qog‘ozni ko‘rsatdi, sekingina shunday dedi: “So‘fi ot-aravangizni bizga soting. Mana bahosi... “Hilayi shariy” zakot berish degani shu dedi u” [8. 152]. O‘z navbatida Mirzakarimboy agiografik adabiyotning maqsadi bo‘lgan mazmu-mohiyat bilan tanish bo‘lgan qahramon, shu sababli ham “Hilayi shariy” qilmoqda. “Mashhurdurkim, ahd qildikim Rahimani yuz yig‘och urg‘ay... Va Rahimani pokligiga tanug‘lug‘ berib, mahshurdurkim, yuz supurgu yig‘ochini bir-biriga bog‘lab, Rahima uchasig‘a urub, ahd uhdasidin chiqti” [4. 558-559] Keltirilgan mazkur misolda muallif asarlardagi g‘oyalarni kitobxonga yetkazish uchun agiografik asarlardagi voqea-hodisalarning syujetini ixcham xolda va o‘z navbatida zamonaviy usulda ijodiy niyat asosida bayon etadi. Xarakterli jihati ijodkorning o‘zi ham agiografik asarlardan yaxshigina xabardor ekanligi namoyon bo‘ladi. Bunday misollarning badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishi bevosita ijodkor va u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ham bog‘liq hisoblanadi. “Qutlug‘ qon”

asari yaratilgan davrda asosi diniy bilan bog‘liq voqealarning berilishi nafaqat ijodkor, balki asar taqdiriga ham daxl qilishi mumkin edi.

Muallif ayrim o‘rinlarda agiografik syujetni aynan keltirmasdan shu syujet linyasini bevosita eslatadigan voqea-hodisalarni zamonaviy ko‘rinishda bayon etadi. Bunday jarayonda an‘ana va izdoshlikni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. “Otabek Marg‘ilon kelganing ikkinchi kuni poyabzal bozorida bo‘lg‘on edi. Asr namozining vaqti o‘tib borg‘onlikidan ul shundagi do‘kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi... Tahorat olmoq uchun ariq bo‘yig‘a o‘lturdi. Ammo ko‘zi xayoli yashirg‘an yo‘lakda edi... asr namozini qazo qilib kuch bilan qutidor uyidan chiqdi” [9. 49-50], keltirilgan bu misolda ham agiografik masala asarning qurilishiga ta‘sir o‘tkazmoqda. Abdulla Qodiriy o‘z davrining o‘qimishli insonlaridan bo‘lganligini hisobga olsak yuqoridagi voqeaning kiritilishi tabiiy holday ko‘rinadi. Shuni unutmash kerakki, bu voqea orqali kelajakda Kumushning taqdiri qanday yakunlanishi ham ma‘lum darajada oydinlashadi. Chunki aynan shu ko‘rinishdagi syujetni “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham ko‘rishimiz mumkin: “Bir kun hazrati Sulaymon alayhissalom Karvon degan tog‘da bir to‘da otlarni ko‘rdilarki, qanotlari bor edi...Hazrati Sulaymon alayhissalom otlarga mahliyo bo‘lib namozi digar (asr namozi) vaqtini o‘tkazib yubordi. Keyin haligi otlarni chopib tashlab, Xudoga munojot qildi “Ey bor Xudoyo, kunni qaytar...” [3. 67-68]. Keltirilgan bu ikki voqeaga e‘tibor qaratsak o‘zaro bog‘liqlik namoyon bo‘ladi. “O‘tkan kunlar” asarida ham Kumush asar so‘ngida halok bo‘ladi, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham otlar halok bo‘ldi. Ijodkorning ijodiy yondashuvi shun talab qildi. Muallif o‘zi xohlamaga holda Kumushni “o‘limga. Shu o‘rinda agiografik asarlar bilan yaxshi tanish bo‘lgan kitobxonada e‘tiroz tug‘ilishi mukin: “Musulmonlarga namoz me‘roj kechasidan keyin farz bo‘ldi-ku?”, shu jihatdan kitobxon haq, lekin ijodkorning ijodiy yondashuvi shu narsani talab qilmoqda. O‘z navbatida agiografik asarlarda keltirilgan har bir payg‘zmbarga Yaratgan tomonidan o‘ziga xos tarzda ibodat buyurilgan bo‘lib, muallif bu jarayonda kitobxonlarning e‘tiqodiy qarashlarida kelib chiqqan holda shunday bayon usulini tanlagan. Negaki asar yaratilgan vaqtd jamiyat a‘zolarining ko‘p qismi yangi islom dinini qabul qilganliklari uchun ham bunday holni tabiiy deb qabul qilganlar.

Agigografik asarlarda zo‘r mahorat bilan tasvirlangan Solih alayhissalom bilan bog‘liq voqea-hodisalarning syujetini xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotimizda ham uchratishimiz mumkin. Syujetlar bir xil bo‘lsa ham davr va makonda hamda ijtimoiy hayot talabida kelib chiqqan holda turli ko‘rinishlarda namoon bo‘ladi. “Iyid kuni o‘sha yerga hamma kofirlar to‘plandilar. Bu kishining duolari bilan [Solih alayhissalom nazarda tutilmoqda] xuddi o‘shanday tuya tosh ichidan chiqib, erkak bola tug‘di. U yerda buloq bor edi, tuyalar shu suvni ichib, tamom qildilar” [3. 62]. Keyinchalik xalq og‘zaki ijodida yartilgan “Yoriltosh” asarining genezisida ham xuddi shunday syuetni ko‘rishimiz mumkin. Keltirilgan misolda tuya toshning ichidan chiqqanligi keyinchalik Solih alayhissalom o‘z qavmiga bu tuyalarga ozor bermasliklarini ta‘kidlaydi, lekin qavmi uning so‘zlariga quloq tutmay tuyalarga ozr beradilar. Ona tuyani o‘ldirganlaridan so‘ng bolasini ham o‘ldirishga chog‘langanlarida tuyaning toshga kirib ketishi voqeasi xalq og‘zaki ijodida boshqa shaklda namoyon bo‘ladi. “Yoriltosh”da ham jamiyatdan yaxshilik ko‘rmagan qizlarning toshdan panoh so‘rashlari va toshining ichiga kirib najot topishlar ham ta‘sircha usulda bayon etilgan. Solih alayhissalom qisasida jonivaorlarga ozor bergan va ularni o‘ldirgan qavm keyinchalik halokatga yuzlandi. Shunday syujetni zamonaviy adabiyotimizda ham ko‘rishimiz mumkin: “E bir qari chol o‘zi... Kesak polvon Abdurahmon tabib bilan bo‘lgan uchrashuvni qisqa tarzda bayon qildi. Uning ulochi otlarini otib tashlashlashni buyurganini esa aytmadi. Asadni olib boramiz, - [11] dedi Jalil bir oz mulohaza qilgach”. Asarni o‘qish jarayonida Kesakpolvonning

ayanchli tarzda halok bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki agiografik asarlardagi syujetlar hozirgi kunda badiiy adabiyotlarda ayrim voqea-hosidsalarni izohlab berish uchun qoliplovchi hikoya sifatida keltirilmoqda. Ayrim o'rinlarda esa voqea bayon etilmay aynan shu syujet asar mazmuniga mos tarzda zamonaviy ko'rinshda bayon etilmoqda.

Muhokama qismi. Xalq og'zaki ijodida ham ko'p uchraydiga ayrim lavhalar agiografik asarlarda mazmun-mohiyat tushuntirilgan holda bayon etiladi. Misol uchun Sharq xalqlari ertaklarida ko'p uchraydigan "uchar gilam" bilan bog'liq bo'lgan epizodlarni agiografik asarlarda ham ko'rishimiz mumkin: "Tepada qushlar soyabon edilar. Bu gilamni shamol ko'tarib yurar edi" [3. 62]. Yoki boshqa Shaqr ertaklarida ko'zga tashlanadigan "g'ordagi xazinani qo'riqlab yotuvchi ajdar" obrazi ham agiografik asarlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: "Muhammad alayhissalom xazina singar g'orda yashiringanda u [Abu Bak nazarda tutilmoqda] ajdahodek unga soqchilik qilgan" [10. 21]. Bundan tashqari yana jonivorlar, darxtnlar, tog'-u toshlar, chaqaloqlarning tilga kirib ma'lum bir voqeaning qanday bo'lganligini so'zlab berishlari ham Sharq mifologiyasi va ertaklarida bo'lgani singari agiografik asarlarda ham ko'p uchraydi. Bunday voqea-hodisalarni Nuh, Yusuf, Solih, Muso, Muhammad alayhissalomlar bilan bog'liq voqealarda ham ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yaxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.
2. Куронов Д. Мамажонов З. ва бошқалар. Адбиётшунослик луғати. Тошкент. Академ нашр. 2013.
3. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Тошкент. Ёшлар нашриёти. 2018.
4. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами X жилдлик. Тарихи анбиё ва ҳукамо. VIII жилд. Тошкент. Ғафур Ғулом. 2013.
5. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Кунтуғмиш. Тошкент. Ғафур Ғулом. 1975.
6. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар. Тошкент.
7. Alromish. Toshkent. Sharq. 1998
8. Ойбек. Қутлуғ қон. Тошкент. Ғафур Ғулом. 1969.
9. Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. Ўткан кунлар. Тошкент. Шарқ. 2014.
10. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Тошкент. Янги аср авлоди.
11. Тоҳир Малик. Шайтанат. Учунчи китоб.
12. Sayidolimov, Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li agiografik adabiyotda tazkira // orienss. 2023. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agiografik-adabiyotda-tazkira> (дата обращения: 09.01.2024).
13. Sayidolimov, Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li agiografik obrazlarning mazmun-mohiyatidagi evrilishlar // orienss. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agiografik-obrazlarning-mazmun-mohiyatidagi-evrilishlar> (дата обращения: 09.01.2024).